

## YUQORI SINIF O‘QUVCHILARI UCHUN JISMONIY TARBIYA DARSINI SIFATLI O‘ZLASHTIRISHLARIDA YANGICHA PEDAGOGIK YONDASHUV

Shamuratov Jasur Seytmuratovich

Muallif: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor-o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdan Respublikamiz maktablarida “jismoniy tarbiya” darsi sifat ko‘rsatkichlari haqida yozilgan, darsning tashkil qilinishida va rejalashtirishda yangicha usulda yondashgan holda, darsning sifat darajasini oshirish maqsadida taklif keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, nazariy bilim, o‘qituvchi, sifatli ta’lim. Tobora tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda jismoniy tarbiya yo‘nalishida hususan, maktabda bo‘lib o‘tadigan jismoniy tarbiya darslarining sifat darajasini va tashkil qilinishini yanada mukammal darajada bo‘lishini talab qilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining 2022-yil Parlament va xalqqa murojaatnomasida qayta va qayta ta’limning sifatini yuqori darajada bo‘lishi kerakligini ta’kidlab o‘tdilar va 2023-yilni yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”, deb nomlashni taklif qilgani bejiz emas albatta.

Buning zamirida yurtimizning pedagog hodimlari yelkasidagi ma’sulyat yuki darajasi yanada oshdi desak adashmagan bo‘lamiz.

Jismoniy tarbiya darslarining sifatli bo‘lishi va samarli natija berishi uchun avvalo, darsga bo‘lgan munosabatni tamomila o‘zgartirish kerak deb hisoblayman. Avvalo, o‘qituvchining o‘zi darsga amaliy tarzda tayyorlangani kabi nazariy tarafdin ham tayyor bo‘lishi lozim. Shundan keyin har bir sinfga haftada 2 marta “jismoniy tarbiya” darsi bo‘lishini hisobga olgan holda shundan bittasini nazariy bilimga qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Bu o‘z o‘rnida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir.

Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek:

“Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi”.

Oq ko‘ngil va mehnatsevar xalqimizning kelajagini ishonchli barpo etishimiz mumkin bo‘ladi. Jismoniy tarbiya dars jaroyonlarini tubdan isloh qilmas ekanmiz bu sohaning va dars sifatining o‘zgarishini kutish mumkin emas, binobarin avval nazariy bilim keyin amaliyot tashkil qilinsa ilmiy salohiyat va natijadorlik o‘zgarishi mumkin bo‘ladi.

Yuqori sinf (5-11) o‘quvchilari uchun alohida dars rejalarini tuzgan holda, olimpiya o‘yinlariga kiritilgan sport turlarining kelib chiqish tarixi, rivojlanishi, qonun-qoidalari, haqida qisqacha nazariy bilim va tushunchalarni alohida jismoniy tarbiya darsi uchun daftar qo‘ygan

<https://conferencea.org>

holatda sinfda o'rgatib borish orqali jismoniy tarbiya darsining sifatli bo'lishini ta'minlagan bo'lamiz.

Biz uzoq yillar davomida jismoniy tarbiya darsini bir tarafdin ko'rib o'rganib qolganligimiz (faqat amaliy darslardan iborat o'yin va mashqlardan iborat dars sifatida) sababli, hozirda maktabni bitirib oliygohga o'qishga kirgan talaba jismoniy tarbiyada nazariy bilim borligini ko'rib ongiga qabul qilishi qiyin bo'lib qolmoqda. Maktabning o'zida qisqacha tushuncha sifatida jismoniy tarbiyaga oid jismoniy sifatlarni 10-11 sinflarga o'rgatish mumkin deb hisoblayman.

Bu orqali hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Degan fikrlariga hamohang ish olib borgan bo'lamiz.

Bugungi kun yoshlari zehnan va ruhan biz o'qigan davrlarimizdan ancha farq qilishini hisobga olgan holda, oliygoh tizimidagi bilimlarning boshlang'ich nuqtasi sifatida (jismoniy sifatlarni, olimpiya o'yinlaridagi sport turlarining qonun qoidalari) jismoniy tarbiya darsida bimalol ikkilanmasdan yuqoridagi bilimlarni o'quvchilarga o'rgatish mumkin.

Jismoniy tarbiya sohasini rivojlantirish uchun, yanada yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishish uchun, maktabda jismoniy tarbiya darsini nazariy bilimlari ham berilishi lozim.

Hulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, jismoniy tarbiya darsining maktab o'quvchilari tasavvurida yangicha falsafani uyg'otgan holda "jismoniy tarbiya" fanining rivojlanishida yuqorida ta'kidlab o'tilgan holda yondashilsa;

- **O'quvchilarning darsga munosabati jiddiylashadi va qiziqish darajasi ham ortgan bo'ladi.**
- **Sport zallaridagi parallel darslarning soni kamayishiga erishiladi.**
- **O'quvchi ko'proq bilimga ega bo'ladi.**
- **O'quvchining oliygohdagi bilimlarni o'zlashtirishi uchun poydevor mustahkam yaratiladi va talabalik davrida fanga chuqurroq yondashish imkoniyatini beradi.**

Ingliz faylasufi va sotsiologi **Gerbert Spenser** (1820-1903) ta'kidlaganidek jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va ahloq tarbiyasini qo'shib olib borishni quvvatlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlament va xalqqa 2023-yil uchun Murojaatnomasi. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
2. [www.Arxiv.uz](http://www.Arxiv.uz)
3. Jumanov Ortugmat Sangilboyevich "JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA USLUBIYATI" uslubiy qo'llanma Toshkent 2021 y.
4. Azizov N. N. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. - T. :ITA – PRESS, 2014.